

**SHAXS VA UNING TOLERANTLIK TUSHUNCHASI**

Qayumova Jayrona G'ofur qizi - Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat
Pedagogika Universiteti Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Mirzayeva Sevara Shukur qizi - Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat
Pedagogika Universiteti Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: ushbu maqolada shaxs va tolerantlik tushunchalari, ularning mohiyati va o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Shaxs – bu ijtimoiy munosabatlar asosida shakllangan individuallik bo'lib, uning rivojlanishida biologik, ijtimoiy va ma'naviy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Tolerantlik esa boshqa insonlarning fikr, e'tiqod, millat va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish qobiliyatidir. Tolerantlikning diniy, milliy, madaniy va ijtimoiy shakllari hamda ularni rivojlantirish tamoyillari bayon etildi. Shuningdek, tolerantlikning shaxs rivojlanishiga ijobiy ta'siri, jamiyatsdagi nizolarni kamaytirishi va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashdagi roli yoritiladi. Maqola tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning muhimligini ta'kidlab, har bir inson o'zida bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: shaxs, tolerantlik, millat, qadriyat, individuallik, faollik, mas'uliyat, ijtimoiy omillar, gender tolerantligi, nizolar.

Shaxs — bu nafaqat biologik mavjudot, balki ijtimoiy munosabatlar tizimida shakllangan individuallikdir. Inson tug'ilgandan keyin shaxs bo'lib shakllanadi, bu jarayon tarbiya, atrof-muhit, ta'lim, tajriba va shaxsiy xulq-atvor orqali amalga oshadi.

Shaxsning asosiy tarkibiy qismlari:

1. Individuallik – har bir insonning boshqa odamlardan farqli bo'lgan xususiyatlari.
2. Faollik – insonning o'z hayoti va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishi.



3. O‘zini anglash – insonning kimligi, maqsadlari va hayotiy yo‘nalishlari haqida fikr yuritishi.

4. Mas’uliyat – o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlik his qilish.

5. Irodaviy sifatlar – insonning qat’iyatliligi, maqsad sari intilishi va qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyati.

Shaxsni rivojlantiruvchi omillar quyidagilardir:

Biologik omillar – genetik xususiyatlar, jismoniy salomatlik.

Ijtimoiy omillar – oila, do‘stlar, muhit va jamiyat.

Ma’naviy omillar – ta’lim, madaniyat, diniy va axloqiy qadriyatlar.

Shaxs shakllanishida jamiyatning ta’siri katta. Inson ijtimoiy muhitda o‘tib, bilim oladi va o‘zining jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi.

Tolerantlik (lot. tolerantia — sabr-toqat), bag‘rikenglik — o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lish. Hozirgi dunyoda tolerantlik o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallasuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va o‘zaro bog‘liklik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko‘chib yurishi va boshqa jamiyatda tolerantlik tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi. Bag‘rikenglik tamoyili aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaklashtirishdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni tasdiqlaydi. Bu tamoyilga ko‘ra, har kim o‘z e’tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog‘i lozim. Bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim. Tolerantlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida YUNESKO "Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi"ni qabul qilgan (1995-yil 16 noyabr). Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o‘ziga xos xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munosabatini O‘zbekiston misolida ko‘rish mumkin. Mamlakatimizda turli toifadagi odamlar, siyosiy kuchlar va partiyalar o‘rtasidagi hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik tamoyili ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. O‘zbekistonda 130 dan ziyod millat va



elat vakillari istiqomat qiladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagan va bu xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. 10 dan ziyod konfessiyaga mansub din vakillari yurtimizda hamkor, hamjihat yashab kelayotgani esa dinlararo tolerantlikning yaqqol namunasidir.

Shaxs va tolerantlik o'zaro bog'liqligi. Tolerantlik shaxsning rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Chunki: Tolerant shaxs ochiq fikrli va bag'rikeng bo'ladi, u boshqalarning qarashlarini hurmat qiladi va o'z fikrini ham asosli tarzda ifoda eta oladi. Tolerantlik ijtimoiy muhitni yaxshilaydi, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Shaxs o'zini anglagan sari tolerantlik darajasi ham ortadi, ya'ni odam o'z fikriga ega bo'lishi bilan birga, boshqalarning fikrini ham qabul qila oladi. Shaxsning tolerant bo'lishi jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim. Tolerantlik bor joyda nizolar va ziddiyatlar kamayadi. Odamlar o'z huquqlari va erkinliklarini bilib, boshqalarnikini ham hurmat qilishadi. Ijtimoiy adolat ta'minlanadi. Madaniyatlar va millatlar o'rtasida o'zaro tushunish rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekistan milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. Akramova, D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta'lim tizimidagi faoliyati. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
3. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2150-2153.
4. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(8), 19-23.
5. Akramova, D. E. qizi Suvonqulova, MD (2023, January). RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH VA MILLIY QADRIYATLAR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 393-396).



6. Akramova, D. E. qizi Azimova, XD (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIM YO 'NALISHI TALABALARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 382-385).
7. Ergashevna, A. D. (2023). TARBIYALANUVCHILARDA MOSLASHUVCHANLIK MEHANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. *Journal of new century innovations*, 23(2), 169-173.
8. Акрамова, Д. Э., & Йўлдошева, Н. (2023). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ МАЖМУИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 362-364).
9. Акрамова, Д. Э., & Бобомуродова, О. Б. (2023). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 352-354).
10. Akramova, D. (2022). ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS-PSYCHOLOGISTS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(8), 322-326.
11. Акрамова, Д. Э. қизи Давронова, ЖС (2023, January). ТАРБИЯ ТИЗИМИ ВА УНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 358-361).
12. Акрамова, Д. Э. қизи Бозорбоева, ДА (2023, January). ЖАМОА–ТАРБИЯ ОБЪЕКТИ ВА СУБЪЕКТИ СИФАТИДА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 355-357).
13. Ergashevna, A. D. (2025). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIALIZATION IN SCHOOLCHILDREN OF THE PREPARATORY GROUP. *SHOKH LIBRARY*.
14. Ibraimov, X., & Akramova, D. (2023). DIDACTIC CHARACTERISTICS OF COMMUNICATIVE TRAINING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *Science and innovation*, 2(B11), 357-361.